

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

«TASDIQLAYMAN»

**Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori
Sh.S.Sharipov**

«MA’QULLANDI»

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy
ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi OAK raisi**

A.T.Yusupov

2023- yil «___» _____

2023- yil «___» _____

**10.00.01 – “O‘ZBEK TILI”
ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon
DASTURI**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi OAK Rayosatining 2023 yil «___» _____-sonli qarori
bilan tasdiqlangan.

JIZZAX-2023

Tuzuvchilar:

A.Mamatov,

G.Jumanazarova,

A.Musaev,

Sh.Almamatova,

F.Ibragimova.

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Jizzax davlat pedagogika universiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan va OAKka tasdiqlash uchun tavsiya qilingan (2022 yil “__ ” dagi __ -sonli bayonnoma).

Kirish

10.00.01 – “O‘zbek tili” ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori imtihoni dasturi ayni ixtisoslikdan imtihon topshiruvchi tayanch doktorant yoki mustaqil izlanuvchilarning o‘zbek tili tizimini to‘liq darajada, ya’ni uning fonetikasi, grammatikasi, leksikologiyasi, dialektologiyasi, tarixiy leksikologiyasi va grammatikasi hamda tarixiy taraqqiyotini, shuningdek, uslubiyati va nutq madaniyati muammolarini, notiqlik san’ati tarixini, imlosi va adabiy talaffuz tamoyillarini davlat universitetlari va pedagogika institutlari filologiya fakultetlarining magistraturasini tugallaganlarga mo‘ljallangan dastur hajmida o‘rganilganligini baholashni ko‘zda tutib tuzilgan.

Mazkur dastur, fan mohiyatidan kelib chiqqan holda, “O‘zbek tili tarixi”, “O‘zbek shevashunosligi (dialektologiyasi)” va “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” deb nomlangan uch tarkibiy qismga bo‘lindi.

“O‘zbek tili tarixi” kursi o‘zbek tilining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari va buning o‘ziga xos xususiyatlarini, o‘zbek tili tarixini davrlashtirish masalalarini, qadimiy turkiy til, eski o‘zbek tili, o‘zbek adabiy tili, ularning o‘ziga xos lisoniy xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan; o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va boyishida, uning funksional uslublari hamda me’yorlari rivojida tarixiy yozma yodgorliklar tili, xalq lahja va shevalari hamda o‘zbek folklori tilining o‘rni va ahamiyatini belgilash va baholashga yo‘naltirilgan; ana shu shakllanish jarayonida o‘zbek mumtoz adabiyoti tilining, ayniqsa, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg‘ozixon, Ogahiy va boshqalarning asarlari tilining ahamiyatini ko‘rsatishni maqsad qilib qo‘ygan.

O‘zbek tili turkiy tillar orasida eng ko‘p shevali tildir: unda qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga mansub yuzlab shevalar mavjud. O‘zbek dialektologiyasi (shevashunosligi) o‘zbek tilshunosligining mustaqil yo‘nalishi bo‘lib, o‘zbek shevalarini tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi. “O‘zbek shevashunosligi (dialektologiyasi)” qismi bo‘yicha tuzilgan dastur imtihon topshiruvchi shaxsning o‘zbek dialektologiyasining maqsad va vazifalari, uning tadqiqot ob’ekti, tadqiq usullari, o‘zbek tili lahja va shevalarining lisoniy xususiyatlari yuzasidan bilim darajasini aniqlashni ko‘zda tutadi.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kursi bo‘yicha tuzilgan dastur va savollar imtihon topshiruvchining hozirgi o‘zbek tili fonetikasi, morfemikasi va so‘z yasalishi, morfologiyasi va sintaktik tuzilishi, grammatik kategoriyalari va ularning tasnifi, lug‘aviy tizimi va uning tarkibi, boyish manbalari, imlosi va to‘g‘ri talaffuzi, uslubiyati va boshqalar haqidagi bilimlarini aniqlashni ko‘zda tutadi.

O‘zbek tilining lug‘at tarkibi murakkab tizim va qatlamlardan iborat bo‘lib, so‘zlar ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo‘llanib, muayyan sohalarga funksional jihatdan moslashgan, tarmoqlangan bo‘ladi. Mana shunday sohalardan biri ilm-fan sohasi bo‘lib, unga xoslangan so‘zlar terminlar hisoblanadi. Terminologiya bo‘yicha tuzilgan savollarning maqsadi imtihon topshiruvchi shaxsning terminologiya, jumladan, o‘zbek terminologiyasi bo‘yicha bilim darajasini aniqlashdir. Ayniqsa, ilmiy- tadqiqot olib borayotgan shaxslarning ilmiy terminologiyaning mohiyatini, asosiy lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini yaxshi bilishi, o‘z sohasida terminlarni to‘g‘ri qo‘llay olishi nihoyatda muhimdir. Aksincha, terminlarni noto‘g‘ri qo‘llash ilmiy tushunchalarni to‘g‘ri tushunishga xalaqit beradi.

Nutq madaniyati va uslubshunoslik, imlo va to‘g‘ri talaffuz sohalari bo‘yicha tuzilgan dastur haqida ham ayni shu fikrlarni aytish mumkin.

O‘zbek tilining boy ifoda imkoniyatlari, hozirgi globallashuv davridagi taraqqiyoti, millat mentaliteti va dunyoqarashi bilan bog‘liq jihatlarini dunyo tilshunosligining yetakchi ilmiy paradigmalari hamda milliy tilshunosligimizda ilgari surilgan nazariy qarashlar asosida tadqiq etish hozirgi tilshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini oshirish bilan bog‘liq 2019 yil 4 oktabrdagi PQ–4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF-4797-sonli «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmonlarida o‘zbek tilini o‘rganishga doir muhim fikr va qarashlar, jumladan, mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish, davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash xususidagi qarashlar olg‘a surilganki, ular o‘zbek tilini o‘rganish va tadqiq etishda dasturulamal ahamiyatiga egadir.

Metodologik masalalar

Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, uni rivojlantirish borasida tilshunoslar, umuman, ziyolilar oldiga qo‘ygan vazifalari va ko‘rsatmalari.

O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni (1989 yil 21 oktabr, 1995 yil 25 dekabr), uning mohiyati, Qonunning jamiyat hayotidagi va o‘zbek tili rivojida ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi Qonuni (1993 yil 2 sentabr, 1995 yil 6 may)ning mazmuni va ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ni tasdiqlash haqida»gi Qarori (1995 yil 24 avgust), imlo qoidalari amaliyoti hamda uni yanada takomillashtirish borasidagi mulohazalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF-4797-sonli «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni (2016 yil 14 may)da o‘zbek tilshunosligini rivojlantirishga doir ko‘rsatmalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4479-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorining ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining o‘zbek tili taraqqiyotidagi roli.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentabrdagi 637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun-mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 Yil 20 oktabrdagi PF-6084-Son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining mazmun-mohiyati.

Sh.M.Mirziyoevning Oliy majlis qonunchilik palatalariga murojaaaatnomalarining mazmun-mohiyati.

1-qism. O‘zbek tili tarixi

O‘zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish masalasi. «Qadimgi turkiy til», «Eski o‘zbek tili», «Hozirgi o‘zbek tili» tushunchalari haqida.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tili va uning o‘zbek tilining shakllanishidagi ahamiyati. XIII-XIV asrlarda O‘rta Osiyo va Oltin O‘rda hududlarida yaratilgan adabiy yodgorliklar tili va uning o‘zbek tiliga munosabati. XIV asr oxiri va XV asrning 1-yarmidagi o‘zbek adabiy tili va uning shakllanish manbalari.

Alisher Navoiy – o‘zbek adabiy tilining asoschisi. Alisher Navoiy tilining dialektal asoslari. Alisher Navoiyning «Muhokamatul-lug‘atayn» asari va uning o‘zbek tili rivojidadagi o‘rni. «Muhokamatul-lug‘atayn» – tillarni qiyosiy o‘rganish namunasi sifatida. XVI asr o‘zbek adabiy tili rivojini o‘rganishda Bobur asarlarining ahamiyati.

XV-XIX asrlarda eski o‘zbek tili bo‘yicha yaratilgan lug‘atlar va grammatik asarlarning o‘zbek tili tarixini o‘rganishdagi ahamiyati. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiy tilining asosiy xususiyatlari.

Eski o‘zbek adabiy tilining funksional uslublari, ularning shakllanishi va taraqqiyoti. O‘zbek tilida publitsistik uslubning paydo bo‘lishi va shakllanishida o‘sha davr matbuoti tilining o‘rni. O‘zbek milliy adabiy tili va uning shakllanish manbalari. Milliy tilning asosiy xususiyatlari. O‘zbek tili tarixi masalalarining o‘rganilishida xorij turkiyshunoslarining (Ye.D. Polivanov, K.K. Yudaxin, A.K. Borovkov, A.N. Kononov, A.M. Shcherbak, V.V. Reshetov, N.A. Baskakov, G.F. Blagova va b.) xizmatlari. O‘zbek tili tarixi masalalarining o‘rganilishida Hamid Ne‘matovning o‘rni.

Eski o‘zbek tilida unlilar tizimi. Eski o‘zbek tilida undoshlar tizimi. Eski o‘zbek tilida singarmonizm.

Eski o‘zbek tilida kelishiklar va ularning ifodalanish shakllari. Eski o‘zbek tilida sifat darajalari va ularning ifodalanish shakllari. Eski o‘zbek tilida tartib son va uning ifodalanish usullari. Eski o‘zbek tilida kishilik olmoshlari va ularning turlanishi. Eski o‘zbek tilida fe‘l mayllari. Eski o‘zbek tilida fe‘l zamonlari va ularning ifodalanish shakllari.

Eski o‘zbek tilining sintaktik xususiyatlari. Eski o‘zbek tilida gap bo‘laklari, gaplarning tuzilishi va tiplari.

2-qism.O‘zbek shevashunosligi (dialektologiyasi)

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining dialektal asoslari. Qarluq lahjasi va unga mansub shevalar. Qipchoq lahjasi va unga mansub shevalar. O‘g‘uz lahjasi va unga mansub shevalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalaridan har birining o‘rni va ahamiyati. O‘zbek shevalarini tasniflash muammolari (G‘ozi Olim, Ye.D. Polivanov, K.K. Yudaxin, A.K. Borovkov, V.V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov).

O‘zbek shevalarida «o»lashish, uning yuzaga kelish sababi va genezisi. O‘zbek shevalarida unlilar va ularning adabiy tildagi unlilardan sifat va miqdor jihatidan farqlanishi. O‘zbek shevalarida undoshlar va ularning adabiy tildagi undoshlardan sifat va miqdor jihatidan farqlanishi.

O‘zbek shevalarida egalik kategoriyasi. O‘zbek shevalarida ko‘plik kategoriyasi. O‘zbek shevalarida kelishiklar. O‘zbek shevalarida fe‘l zamonlari. O‘zbek shevalarida ko‘makchilar.

O‘zbek shevalarida so‘z yasalishi; so‘z va shakl yasovchilar.

O'zbek shevalarining lug'aviy tarkibi va uni o'rgangan o'zbek shevashunoslari.

3-qism. Hozirgi o'zbek adabiy tili

Fonetika. O'zbek tili unilari va ularning tasnifi. O'zbek tili undoshlari va ularning tasnifi. O'zbek tilida qo'sh undoshlarning qo'llanishi.

Tarixiylik jihatidan o'zbek tili leksikasi. O'zbek tilida tarixiy va eskirgan so'zlar. Qo'llanish doirasiga ko'ra hozirgi o'zbek tili leksikasi: dialektal, maxsus, jargon va boshqa turdagi so'zlar. O'zbek tili leksikasining faol va nafaol qatlamlari. So'zlarning nafaol zaxiraga o'tishi yoki eskirgan so'zlarning yangi ma'no kasb etishi. Ularni yuzaga keltiruvchi omillar. O'zbek tilining mustaqillik davri rivoji: neologizmlar.

So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Sinonimiya va sinonimik qator. Antonimiya. Omonimiya. Paronimiya. Polisemiya. Polisemiya va omonimiya munosabati. So'zning o'z (to'g'ri) va ko'chma ma'nosi. So'z ma'nosining taraqqiyoti. Okkazional va uzual ma'no. Til birliklarida milliy-madaniy sema. So'zning semantik tarkibida konnotativ ma'no va baho munosabatining ifodalanishi. O'zbek tili semasiologiyasi rivojida Miraziz Mirtojievning xizmatlari.

Nom ko'chish usullari va ko'chma ma'nolar. Metafora. Metonimiya. Sinekdoxa. Vazifadoshlik.

Frazeologiya va frazeologizm. Frazeologizm – terminologik birikma – erkin so'z birikmasi. Frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari.

Leksikologiya va leksikografiya. Lug'at turlari. Lug'at tuzish tamoyillari.

Terminologiya. Termin va terminologiya tushunchalari haqida. Terminga qo'yiladigan asosiy talablar. Terminologiyada omonimiya va sinonimiya hodisalariga, polisemiyaga munosabat. Terminlarni me'yorlash tamoyillari. Ilmiy terminologiya va xalq terminologiyasi. Terminologik lug'atlar va ularni tuzish prinsiplari.

Terminologik tizimlarni tasniflash asoslari. O'zbek tili terminologik tizimlari boyishining ichki va tashqi imkoniyatlari. Mustaqillik davri o'zbek terminologiyasi: taraqqiyoti va muammolari. Adabiy talaffuz (orfoepiya) me'yorlari. Hozirgi o'zbek tilida imlo tamoyillari. Lotin yozuviga asoslangan hozirgi o'zbek alifbosining xususiyatlari.

Onomastika sohasi va uning tadqiqot ob'ekti. Onomastika leksikologiyaning bo'limi sifatida. O'zbek antroponimiyasi va uning xususiyatlari. Atoqli otlarning tiplari va o'ziga xos xususiyatlari. Etnonimiya haqida tushuncha va o'zbek etnonimlari. Toponimika – tilshunoslikning bo'limi sifatida. Toponimlarning tarkib topishida nolisoniy omillarning roli. O'zbek toponimiyasining o'rganilish darajasi.

Mustaqillik davrida toponimlarni tartibga solish borasida olib borilayotgan ishlar.

Morfemika. O'zbek tilida affiksial morfemalarning turlari. O'zbek tilida so'z yasash usullari. Azim Hojievning so'z yasalishi haqidagi qarashlari. Diaxron va

sinxron soʻz yasalihi. Qoʻshma soʻzlar va ularning soʻz birikmalaridan asosiy farqlari.

Oʻzbek tilida lugʻaviy va grammatik maʼno, ularning grammatik kategoriyalarga munosabati. Oʻzbek tilida grammatik kategoriyalar talqini. Oʻzbek tilida shakl yasovchi qoʻshimchalar va ularning turlari.

Morfologiya. Oʻzbek tilida soʻz turkumlarining ajratilishi. Soʻzlarni turkumlarga ajratish asoslari. Oʻzbek tilida feʼlning grammatik kategoriyalari. Oʻzbek tilida feʼlning funksional shakllari yoki oʻzgalovchi kategoriya. Feʼlning nisbat kategoriyasi.

Otning grammatik kategoriyalari. Sifat va uning daraja kategoriyasi. Ravish va uning turlari. Sonning maʼnoga koʻra turlari. Olmosh va uning turlari. Inkor ifodalovchi vositalar va feʼlning boʻlishsizlik shakllari. Yordamchi feʼl va uning turlari. Toʻliqsiz feʼl.

Kesimlik kategoriyasi va uning tarkibiy qismlari. Shaxs-son kategoriyasi. Mayl kategoriyasi. Zamon kategoriyasi. Oʻzbek tilida feʼl va gap zamonlari munosabati. Tasdiq-inkor kategoriyasi.

Oʻzbek tilida yordamchi soʻz turkumlari, ularning vazifaviy xususiyatlari.

Oʻzbek tilida semantik-funksional shakllangan soʻz-gaplar: taklif-ishora, tasdiq-inkor, modal va undovlar.

Sintaksis. Oʻzbek tilida sintaktik birliklarning turlari (soʻz birikmasi, gap, matn) va ularning oʻzaro munosabati. Sintaktik aloqa turlari. Soʻz birikmalari. Oʻzbek tilida soʻz birikmasining qurilish qoliplari. Aniq va majhul tuzilmalar (faol va nofaol konstruksiyalar). Sintaktik qayta boʻlinish jarayoni. Til birliklarining assotsiativ aloqasi. Til birliklarining paradigmatic, sintagmatic va pogʻonaviy munosabati.

Oʻzbek tilida predikativlikning ifodalanishi. Oʻzbek tilida sodda gapni tasniflash asoslari. Ot asosli gaplarning semantik tavsifi. Ayub Gʻulomovning sodda gap haqidagi qarashlari. Gap turlari: darak, soʻroq, buyruq gaplar; sodda va qoʻshma gaplar; yigʻiq va yoyiq gaplar; tasdiq va inkor gaplar; toʻliq va toʻliqsiz gaplar, egali va egasiz gaplar va b.

Sodda gapning grammatik boʻlinishi. Gap boʻlaklari nazariyasi: bosh va ikkinchi darajali boʻlaklar; gap va soʻz kengaytiruvchilari; subʼekt, predikat, obʼekt tushunchalari va h.

Sodda gapning murakkablashuvi. Oʻzbek tilida uyushiq va ajratilgan boʻlaklar. Undalma. Kirish va kiritma tuzilmalar.

Uyushgan gap tushunchasi va uning ajratilishi.

Sodda gaplarda shakl va mazmun nomutanosibligi va uning tadqiqi. Sodda gapning aktual boʻlinishi: aktuallashtiruvchi vositalar. Sodda gaplarda soʻz tartibi. Inversiya. Nutq aktlari haqidagi nazariy qarashlar.

Oʻzbek tilida qoʻshma gaplarni tasniflash asoslari. Qoʻshma gap turlari.

Teng, tobe va mutanosib tarkibli qoʻshma gaplar tushunchasi va ularning ajratilishi. Bogʻlangan, bogʻlovchisiz, ergash gaplar tushunchasi va ularning ajratilishi. Qoʻshma gapning tarkibidagi bogʻlovchi vositalariga koʻra turlari.

Qo'shma gapning tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy munosabatga ko'ra turlari. Qo'shma gapning qismlari orasidagi funksional munosabatlarga ko'ra turlari. Nizomiddin Mahmudovning havola bo'lakli qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlari. O'zga gap va uni ifodalash yo'llari. G'anijon Abdurahmonovning qo'shma gaplar xususidagi qarashlari. Mazluma Asqarovaning qo'shma gaplarga doir qarashlari.

Ўzbek tili punktuatsiyasi. Punktuatsiya tarixi va taraqqiyoti. Hozirgi o'zbek tilida punktuatsiya muammolari.

O'zbek tilida murakkab sintaktik butunlik tushunchasi va uning ajratilishi. Matn va uning tadqiqi muammolari. Matn tahlili. Matnga antropotsentrik yondashuv. Lingvokulturologiyaning maqsadi, vazifasi va dolzarb muammolari. Pragmalingvistikaning asosiy masalalari. Abdulhamid Nurmonovning o'zbek tilshunosligi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.

Nutq madaniyati. Adabiy til tushunchasi. Adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari. Adabiy me'yor tushunchasi. Adabiy me'yor turlari. Morfologik va sintaktik me'yorlar.

Adabiy tilning lahja va shevalar bilan o'zaro munosabati. O'zbek adabiy tilining dialektal asoslari. Til birliklarining sotsial xoslanishi.

Adabiy til va nutq madaniyati. Nutq madaniyati – tilshunoslik bo'limlaridan biri sifatida. Nutq madaniyati sohasining tadqiqot ob'ekti. Uslubshunoslik (stilistika) sohasi va uning tadqiqot ob'ekti. O'zbek uslubshunosligining o'rganilish darajasi. O'zbek tilining funksional uslublari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy matnning asosiy xususiyatlari. Lingvopoetika haqida tushuncha. Lug'aviy stilistika.

**«O‘zbek tili» kursi bo‘yicha malakaviy imtihon dasturi yuzasidan o‘qish
uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar
a) metodologik adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni (1989 yil 21 oktabr; yangi tahriri – 1995 yil 21 dekabr).
4. O‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi Qonuni (1993 yil 2 sentabr; yangi tahriri – 1995 yil 6 may).
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ni tasdiqlash haqida»gi 339-sonli Qarori (1995 yil 24 avgust).
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF-4797-sonli «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni
- 6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4479-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori.
- 7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
- 8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentabrdagi 637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
- 9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
- 10.Sh.M.Mirziyoevning Oliy majlis qonunchilik palatalariga murojaaaatnomalari.

b) ilmiy adabiyotlar:

- 1.Abdualazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – T., 1992.
- 2.Abdumajidov G‘. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuniga sharhlar. – T.,1999, 2004.
3. Abdurahmonov G‘. Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T., 2009.
4. Abdurahmonov G‘.Qo‘shma gap sintaksisi. – T., 1964.
- 5.Adabiy norma va nutq madaniyati. – T., 1983.
- 6.Asqarova M. Hozirgi zamon o‘zbek tilida qo‘shma gaplar. – T., 1960. 7.Abdiev M. Sohaviy leksikaning sistem tahlili. – T., 2004.
- 8.Aliev A., Sodiqov Q. O‘zbek adabiy tili tarixidan. – T., 1994.

9. Begmatov E. Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-3-qismlar. – T., 1997-1999.
10. Begmatov E. O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. – T., 1988.
11. «Davlat tili haqida» (O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni matnlari, qonunosti hujjatlar, qonunni amalga oshirish yo‘lidagi muammo va yechimlar) (tuzuvchi – N. Jumaxo‘ja.). – T., 2008.
12. Djamalxanov X. Основы узбекской графики. – T., 1991.
13. Do‘simov Z., Tillaeva M. Toponimika asoslari. – T., 2002.
14. Jamolxonov H. O‘zbek tilining nazariy fonetikasi. – T., 2009.
15. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. – T., 2007.
16. Ishaev A. O‘zbek dialektal leksikografiyasi. – T., 1990.
17. Yo‘ldoshev B., Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. - Samarqand, 2004.
18. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. - T., 2007.
19. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T., 2008.
20. Lutfullaeva D.E. Gapni semantik-sintaktik qoliplashtirish muammolari. - T., 2005.
21. Malov S.Ye. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. Teksty i issledovaniya. – M., 1951.
22. Mamajonov A. Qo‘shma gap stilistikasi. – T., 1990.
23. Mamatov A.E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammosi. - T., 1991.
24. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. – T., 1995.
25. Mahmudov N. O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. – T., 1984.
26. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. - T., 2007, 2009.
27. Mirtojiev M. O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. - T., 2000.
28. Mirtojiev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – T., 2010.
29. Mukarramov M. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining ilmiy stili. – T., 1984.
30. Muxtorov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. - T., 1995.
31. Nurmonov A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. - T., 1992.
21. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. - T., 2006.
33. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi. - T., 2008.
34. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – T., 2002.
35. Nurmonov A. Gap haqida sintaktik nazariyalar. – T., 1988.
36. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo‘jaeva S. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – T., 1992.
37. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – T., 2010.
38. Rustamov T. Sof ko‘makchilar. - T., 1991.
39. Sanaqulov U., Nasriddinzoda B. Qadimgi yozuvlar va eski o‘zbek alifbosi. – T., 1990.

40. Tursunov U., Muxtorov J. Rahmatullaev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T., 1965, 1990.
41. Tursunov U., O‘rinboev B. O‘zbek adabiy tili tarixi. – T., 1982.
42. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. - T., 1990.
43. Fozilov E. O‘zbek tilining tarixiy morfologiyasi. - T., 1966.
44. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi.- T., 2011.
45. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – T., 2015.
46. Shomaqsudov A. O‘zbek tili stilistikasi. - T., 1974.
47. Yusufov B. Mestoimeniya v starouzbekskom yazыke. - T., 1991.
48. O‘zbek shevalari leksikasi. - T., 1991.
49. O‘zbek tili grammatikasi. 1-tom. – T., 1975.
50. O‘zbek tili grammatikasi. 2-tom. – T., 1976.
51. O‘zbek tili leksikologiyasi. – T., 1981.
52. O‘zbek tili stilistikasi. – T., 1983.
53. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek tili. - T.:Mumtoz so‘z, 2010.
54. O‘rinboev B. O‘zbek so‘zlashuv nutqi. –T., 1982.
55. Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. - T., 1992.
56. Qilichev E, Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - Buxoro, 2002.
57. Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. - T.:Universitet, 2014.
58. Qurbonova M. Hozirgi zamon o‘zbek tili (sodda gap sintaksisi). - T., 2002.
59. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek tili. Sintaksis. – T., 1965. 11.
60. Hojiev A. Termin tanlash mezonlari. – T., 1996.
61. Hakimov M. Pragmalingvistika. – T., 2000.
62. Hojiev A. O‘zbek tili so‘z yasaliishi tizimi. – T., 2007.
63. Hojiev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasaliishining nazariy masalalari. – T., 2010.
64. XV-XIX asrlar o‘zbek tili morfologiyasi. - T., 1990.
65. XIII -XIV asrlar turkiy adabiy yodgorliklar tili. - T., 1986.